Bandlik organlarining maʼmuriy hujjatlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sud nazoratining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, yurisdiksiyani chegaralash mezonlarini ishlab chiqish va sud himoyasining samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq normativ hamda amaliy takliflarni asoslash. Bu maqsadga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi: 1) amaldagi qonunchilik tizimli tahlil qilindi; 2) 2024-2025-yillardagi rasmiy maʼmuriy sud statistikasi oʻrganildi; 3) ochiq eʼlon qilingan bandlikka oid sud materiallari keys-tahlil qilindi; 4) Germaniya va Fransiyaning aniq protsessual normalari bilan qiyoslash oʻtkazildi; 5) qonunchilik va Oliy sud Plenumi tushuntirishlarini takomillashtirish takliflari ishlab chiqildi.

Ilmiy tadqiqot 2020-yilda “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinganidan 2025-yil yakunigacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Sud statistikasi boʻyicha 2024-2025-yillar maʼlumotlari, ish materiallari boʻyicha esa 2020–2022-yillarda ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilingan, bandlikka oid munosabatlarning turli yurisdiksiyalarda koʻrilishini koʻrsatadigan ikki holat tanlandi. Ochiq manbalarda bandlik nizolariga doir barcha sud qarorlari va ish raqamlari toʻliq eʼlon qilinmaganligi tadqiqotning empirik cheklovi sifatida qayd etildi.

Oʻzbekiston maʼmuriy huquq doktrinasida maʼmuriy organning qonuniylik, fuqarolar huquqining ustuvorligi va sud nazoratiga boʻysunishi masalalari I. Xamedov, L. Xvan, I. Tsay, S. Muratayev, F. Musayev va D. Artikov asarlarida umumiy nazariy jihatdan yoritilgan (Khamedov et al., 2012, pp. 489–490; Murataev et al., 2020, pp. 19–20). Ushbu tadqiqotlar ommaviy boshqaruvning huquqiy shakllari va maʼmuriy javobgarlikni tushuntirishda muhim boʻlsa-da, bandlik organlari qarorlarining protsessual modeli, raqamli maʼmuriy ish jildi va yurisdiksiya kolliziyalarini alohida tizim sifatida koʻrib chiqmaydi.

Maʼmuriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki, sudning faol roli va ommaviy-huquqiy nizolarning protsessual tabiati E. Xojiyev va Sh. Shayzakov tadqiqotlarida tahlil qilingan (2019, pp. 31–36). Biroq bandlik sohasidagi nizolar ijtimoiy zaif arizachining axborot va hujjatlarga kirish imkoniyati cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois umumiy tortishuv modelini qoʻllashning oʻzi yetarli emas; maʼmuriy organ zimmasidagi hujjatlashtirish va tushuntirish majburiyatini kuchaytirish talab etiladi.

Xorijiy doktrinada P. Cane (2015) maʼmuriy huquqda davlat vakolatining qonuniy cheklanishi va sud nazoratining institutsional rolini, P. Craig (2010) esa protsessual adolat, proporsionallik va asoslantirilgan qaror standartlarini izohlaydi. C. Harlow va R. Rawlings (2010) “law and administration” yondashuvi orqali maʼmuriy adolatni faqat sud bosqichi emas, balki qaror qabul qilishning boshlangʻich maʼmuriy bosqichidan boshlab taʼminlash zarurligini koʻrsatadi. J. Mashaw (1974) esa ijtimoiy taʼminot va ommaviy xizmatlar boʻyicha qarorlarda kechikish, tushuntirishning yetishmasligi va standartlashmagan tartiblar “koʻrinmas protsessual adolatsizlik”ni yuzaga keltirishini asoslaydi.

Formal-yuridik metod “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Qonunning 44-, 45-, 56-, 58- va 118-moddalari, “Maʼmuriy tartib-taomillar toʻgʻrisida”gi Qonunning maʼmuriy ishni tekshirish,

manfaatdor shaxsni tinglash va ma'muriy hujjatni asoslantirishga doir normalari hamda MSIYuKning sudning faol ishtiroki va isbotlash majburiyatini tartibga soluvchi qoidalarini o'zaro bog'liqlikda sharhlash uchun qo'llanildi (Republic of Uzbekistan, 2020).

Keys-tahlil metodida ikki ochiq sud materiali o'rganildi: birinchisi – Yashnobod tumani bandlik organining fuqaro H.A.ni ishsiz deb e'tirof etish va nafaqa to'lashga doir harakatsizligi; ikkinchisi – "Yuuki Masaru xususiy bandlik agentligi" MChJ litsenziyasining to'xtatilishi va keyinchalik bekor qilinishi bilan bog'liq ish. Har bir holatda nizo subyekti, talab predmeti, ma'muriy organning asoslari, sudning protsessual harakati va huquqiy natija ajratildi (Mengliyev & Mamotov, 2021; Akramova, 2022).

Statistik metod 2024- va 2025-yillarda ma'muriy sudlarda ko'rilgan ommaviy-huquqiy nizolarning umumiy soni, huquqi tiklangan shaxslar, haqiqiy emas deb topilgan qarorlar va qonunga xilof deb topilgan harakatlar (harakatsizlik) ko'rsatkichlarini taqqoslashda qo'llanildi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2025; Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2026).

Qiyosiy-huquqiy metod Germaniya VwVfGning 28- va 39-paragraflari, VwGOning 86-paragrafi, Fransiya CRPAning L.211-2 va L.211-5-moddalari bilan milliy qonunchilikni taqqoslashda qo'llanildi (Federal Republic of Germany, 1976; Federal Republic of Germany, 1960; French Republic, 2015; French Republic, 2000). Taqqoslash institutlar darajasida emas, balki aniq protsessual elementlar – tinglanish, sabablarni yozma bayon etish va sud holatlarni o'z tashabbusi bilan tekshirishi – bo'yicha amalga oshirildi.

"Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 44-moddasiga ko'ra shaxs ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olinganidan keyin dastlabki o'n kun ichida maqbul ish taklif etilmasa, uni ishsiz deb e'tirof etish haqidagi qaror o'n birinchi kundan kechiktirilmagan holda mahalliy mehnat organining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu buyruq bir vaqtning o'zida ishsizlik nafaqasini tayinlash haqidagi buyruq hisoblanadi va unda nafaqa miqdori hamda hisoblash sanasi ko'rsatilishi shart. Qaror haqida shaxs ikki kun ichida xabardor qilinadi (Republic of Uzbekistan, 2020). Demak, ishsiz maqomi va nafaqa masalasida mahalliy mehnat organi xususiy-huquqiy shartnoma tarafi sifatida emas, bir tomonlama hokimiyat vakolatini amalga oshiruvchi ma'muriy organ sifatida harakat qiladi.

Qonunning 58-moddasi mahalliy mehnat organlarining nafaqa tayinlash va to'lash haqidagi qarorlari ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish mumkinligini belgilaydi (Republic of Uzbekistan, 2020). Ushbu norma sud turini alohida ko'rsatmaydi. MSIYutK va Oliy sud Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi 24-son qaroridan kelib chiqib, ma'muriy organning bir tomonlama qarori, harakati yoki harakatsizligi bilan buzilgan ommaviy huquqni tiklashga qaratilgan talab ma'muriy sudga taalluqli bo'lishi kerak (Republic of Uzbekistan, 2018a; Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2019). Aksincha, ish beruvchi bilan mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan ishga tiklash, ish haqi va kompensatsiya talablari fuqarolik sud yurisdiksiyasida qoladi.

Xususiy bandlik agentligi ishtirokidagi nizo esa avtomatik ravishda iqtisodiy nizo deb baholanmasligi lozim. Agar agentlik litsenziyalovchi organning hokimiyat vakolatiga asoslangan qarorini haqiqiy emas deb topishni so'rasa, munosabat ommaviy-huquqiy xususiyatga ega. Agar talab litsenziya shartlari bilan bog'liq shartnomaviy majburiyat, zarar yoki to'lovni undirishga qaratilgan bo'lsa, iqtisodiy yurisdiksiya mezonlari qo'llanadi. Shu bois tarafning yuridik shaxs ekani emas, ma'muriy vakolatning mavjudligi hal qiluvchi mezondir.

Bandlik organining qarori faqat rezolyutiv xulosadan iborat bo'lishi mumkin emas. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun ma'muriy organga ishning barcha ahamiyatli

holatlarini tekshirish, manfaatdor shaxsga oʻz fikrini bildirish imkonini berish va yakuniy hujjatda faktik hamda huquqiy asoslarni koʻrsatish majburiyatini yuklaydi (Republic of Uzbekistan, 2018b). Ishsiz maqomini rad etishda, masalan, “maqbul ish ikki marta rad etildi” degan umumiy ibora yetarli emas; taklifning sanasi, ish joyi, kasb, mehnat sharoiti, ish haqi, fuqaroning javobi va rad sababining uzrli yoki uzrsizligi qayd etilishi kerak.

Germaniya VwVfGning 28-paragrafi shaxs huquqlariga salbiy taʼsir qiluvchi maʼmuriy hujjat qabul qilinishidan avval unga fikr bildirish imkonini berishni nazarda tutadi. 39-paragraf esa qarorda maʼmuriy organni xulosaga olib kelgan muhim faktik va huquqiy sabablar bayon etilishini talab qiladi (Federal Republic of Germany, 1976). Fransiya CRPAning L.211-2-moddasi salbiy individual qarorlarning sabablarini bilish huquqini, L.211-5-moddasi esa qaror asosidagi huquqiy va faktik mulohazalar yozma koʻrsatilishini belgilaydi (French Republic, 2015). Milliy qonunda shunga yaqin kafolatlar mavjud, ammo bandlik organlari uchun majburiy rekvizitlar va elektron shaklning standartlari yetarlicha detallashtirilmagan.

Shu munosabat bilan maʼmuriy sud qarorni tekshirganda uch bosqichli testni qoʻllashi maqsadga muvofiq: birinchidan, organ qonuniy vakolat va protseduraga rioya qilganmi; ikkinchidan, qarorda dalillar bilan norma oʻrtasidagi mantiqiy bogʻliqlik koʻrsatilganmi; uchinchidan, organ qaror qabul qilingan paytda mavjud boʻlmagan yangi asoslarni sud jarayonida keltirib, dastlabki hujjatdagi kamchilikni “toʻldirishga” urinmayaptimi. Qarorning qonuniyligi, qoida tariqasida, uni qabul qilish vaqtida koʻrsatilgan asoslar boʻyicha baholanishi lozim.

MSIYutKning 67-moddasi umumiy qoida sifatida har bir ishtirokchining oʻz talabi yoki eʼtiroziga asos boʻlgan holatlarni isbotlashini belgilaydi. Shu bilan birga, maʼmuriy organ qarori, harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyatlarda uning qonuniyligini isbotlash majburiyati javobgar maʼmuriy organ zimmasiga yuklanadi; arizachi esa dalillarni yigʻishda oʻz imkoniyati doirasida ishtirok etishi kerak (Republic of Uzbekistan, 2018a). Mazkur model taraflarning real axborot imkoniyatlaridagi nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan.

Bandlik ishlarida asosiy hujjatlar – elektron roʻyxatga olish vaqti, vakansiya takliflari, ish beruvchining javobi, idoralararo soʻrovlar, nafaqa hisob-kitobi, xabarnoma yetkazilganini tasdiqlovchi maʼlumotlar – aynan maʼmuriy organ nazoratida boʻladi. Fuqarodan oʻzida mavjud boʻlmagan idoraviy maʼlumotlarni qayta taqdim etishni talab qilish isbotlash majburiyatini asossiz ravishda uning zimmasiga oʻtkazadi. Sud javobgardan toʻliq maʼmuriy ish jildini, axborot tizimi audit yozuvlarini va qaror qabul qilish zanjirini talab qilishi kerak.

Germaniya VwGOning 86-paragrafida sud holatlarni oʻz tashabbusi bilan tekshirishi belgilangan (Federal Republic of Germany, 1960). Bu sud taraf oʻrniga daʼvo tuzishi kerakligini anglatmaydi; u ommaviy hokimiyatda mavjud boʻlgan va fuqaro mustaqil ololmaydigan dalillarni faol talab qilishi lozimligini bildiradi. Milliy MSIYutKdagi sudning faol ishtiroki prinsipi ham xuddi shu funksional maqsadga ega. Muammo normaning yoʻqligida emas, balki bandlik ishlariga mos dalillar roʻyxati va salbiy protsessual oqibatlarning bir xil qoʻllanmasligidadir.

Bandlik sohasida harakatsizlik ikki shaklda namoyon boʻladi: qonunda belgilangan muddatda qaror qabul qilmaslik va qaror qabul qilingan boʻlsa-da, uni shaxsga yetkazmaslik yoki ijro etmaslik. Qonunning 44-moddasidagi oʻn bir kunlik va ikki kunlik muddatlar tavsiyaviy emas, balki fuqaroning ijtimoiy taʼminotga oʻz vaqtida kirishini kafolatlovchi imperativ protsessual muddatlardir (Republic of Uzbekistan, 2020). Ularning buzilishi shaxsni

noma'lum huquqiy holatda qoldirib, nafaqaning boshlanish sanasi va miqdoriga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Harakatsizlik ustidan berilgan arizada sud faqat "harakatsizlik qonunga xilof" degan deklarativ xulosa bilan cheklanmasligi kerak. Samarali himoya uchun javobgar zimmasiga aniq harakatni bajarish – arizani ko'rib chiqish, ma'muriy hujjat qabul qilish, hisob-kitobni amalga oshirish yoki xabarnomani yuborish – majburiyati va bajarish muddati yuklanishi lozim. Qarorning ijro etilishini nazorat qilish mexanizmi esa ma'muriy sud himoyasining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Raqamli xizmatlarda "javobsizlik" foydalanuvchi kabinetida arizaning noma'lum statusda qolishi, avtomatik rad sababining ko'rsatilmasligi yoki idoralararo integratsiya xatosi tarzida yuzaga keladi. Bunday holatda sud uchun elektron audit izi – ariza qabul qilingan vaqt, ma'lumot so'rovi, algoritmik tekshiruv natijasi, operator aralashuvi va xabarnoma yuborilgan vaqt – dalil vazifasini bajaradi. Shu sababli raqamli tizimda qaydlar saqlanish muddati va ularni sudga taqdim etish tartibi alohida reglamentlashtirilishi zarur.

Oliy sud ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda ma'muriy sudlar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 15 373 ta ishni ko'rib, 6 338 nafar fuqaro va yuridik shaxsning huquqlarini tiklagan. 2025-yilda ko'rilgan ommaviy nizolar soni 17 714 taga, huquqi tiklangan shaxslar soni 6 999 taga yetgan (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2025; Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2026). Demak, ishlar soni bir yilda 15,2 foizga, huquqi tiklangan shaxslar soni esa 10,4 foizga oshgan.

2025-yilda ma'muriy va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlari ustidan 8 646 ta shikoyat ko'rilib, 3 730 ta qaror haqiqiy emas deb topilgan (43,1 foiz). Mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi bo'yicha 7 049 ta shikoyatdan 2 750 tasi qonunga xilof deb topilgan (39,0 foiz). Ushbu ko'rsatkichlar ma'muriy qarorlar sifati va harakatsizlik muammosi tizimli ekanini ko'rsatadi, biroq ular orasida aynan bandlik nizolarining ulushi rasmiy ochiq ma'lumotda ajratilmagan. Shuning uchun statistik natija bandlik nizolarining aniq chastotasi emas, balki ushbu turdagi ishlar joylashadigan umumiy ma'muriy adolat muhitini tavsiflaydi.

Birinchi keys – fuqaro H.A.ning ishsizlik nafaqasiga bo'lgan huquqi. Oliy sudning "Kuch – adolatda" gazetasida e'lon qilingan materialga ko'ra korxona tugatilishi sababli ishdan bo'shatilgan fuqaro Yashnobod tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatdan o'tgan. Uch oy davomida u ishsiz deb e'tirof etilmagan va nafaqa olmagan. Tuman prokurorining taqdimnomasidan keyin markazning 2020-yil 1-fevraldagi buyrug'i bilan fuqaro ishsiz deb e'tirof etilgan. Sud ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qilib, nafaqani to'lash masalasini hal qilgan (Mengliyev & Mamotov, 2021).

Mazkur keysning huquqiy ahamiyati uch jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, organ qonuniy muddatda buyruq chiqarmagani harakatsizlikdir; ikkinchidan, nafaqa hisoblash uchun zarur ish haqi ma'lumoti fuqaro zimmasiga mutlaq yuklanmay, sud tomonidan talab qilingan; uchinchidan, materialda ishning fuqarolik sudi tartibida ko'rilgani aks etadi. Bu holat tarixiy amaliyotda yurisdiksiya chegaralari bir xil tushunilmaganini va hozirgi ma'muriy sud tizimida ommaviy vakolatga doir talablarni ma'muriy yurisdiksiyaga aniq yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi keys – "Yuuki Masaru xususiy bandlik agentligi" MChJ litsenziyasi. Ochiq materialga ko'ra agentlikka 2019-yil 18-aprelda 0057-son litsenziya berilgan. Qonunchilikda talab etilgan zaxira mablag'i miqdori oshirilganidan keyin agentlik uni belgilangan darajaga yetkazmagan. Vazirlikning 2020-yil 24-noyabrdagi 84-son qarori bilan litsenziya amal qilishi

oʻn ish kuniga toʻxtatilgan. Fargʻona tumanlararo iqtisodiy sudining 2021-yil 20-yanvardagi hal qiluv qarori bilan litsenziya olti oyga toʻxtatilgan, talab bajarilmagach esa keyingi sud qarori bilan bekor qilingan (Akramova, 2022).

Ushbu keys maʼmuriy taʼsir chorasi va sud yurisdiksiyasi munosabatini ochib beradi. Litsenziya – davlat tomonidan beriladigan ommaviy-huquqiy ruxsat. Uni toʻxtatish va bekor qilishda faktik asoslar, mutanosiblik, kamchilikni bartaraf etish imkoniyati va xabardor qilish tartibi tekshirilishi lozim. Shu bilan birga, ishning iqtisodiy sudda koʻrilgani oʻsha davrdagi protsessual modelni koʻrsatadi. Hozirgi sharoitda litsenziyalovchi organning bir tomonlama hujjati ustidan shikoyatni maʼmuriy sudda, davlat organining qonunda nazarda tutilgan daʼvosini esa maxsus norma belgilagan sudda koʻrish masalasi izchil va tushunarli tarzda tartibga solinishi kerak.

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, bandlik sohasida protsessual adolat sudga murojaat qilish imkoniyati bilan cheklanmaydi. Dastlabki maʼmuriy bosqichda shaxsning arizasi toʻliq roʻyxatga olinishi, organ oʻzida yoki boshqa idorada mavjud maʼlumotni mustaqil olishi, salbiy qarordan oldin shaxsni tinglashi, yakuniy hujjatni dalil va norma bilan asoslantirishi hamda shikoyat tartibini koʻrsatishi shart. Mazkur zanjirdagi biror boʻgʻinning buzilishi suddagi isbotlash yukini ogʻirlashtiradi va ijtimoiy huquqni kechiktiradi.

Germaniya modelining milliy huquq uchun foydali jihati alohida institutni koʻchirib olishda emas, protsessual majburiyatlarni ketma-ket bogʻlashdadir: tinglash (§ 28 VwVfG), qarorni asoslantirish (§ 39 VwVfG) va sudning holatlarni oʻz tashabbusi bilan tekshirishi (§ 86 VwGO) bir tizim sifatida ishlaydi (Federal Republic of Germany, 1976; Federal Republic of Germany, 1960). Fransiya CRPA esa salbiy individual qarorlarning sabablarini bilish huquqini va huquqiy-faktik asoslarni yozma bayon qilishni bevosita ifodalaydi (French Republic, 2015). Oʻzbekiston qonunchiligida ushbu elementlar mavjud, biroq bandlik ishlarining xususiy dalillar tarkibi va raqamli jarayonlarga tatbiqi aniqlashtirilishi lozim.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, qonunchilikka quyidagi takliflarni kiritish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi taklif. “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Qonunning 44-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan toʻldirish maqsadga muvofiq: “Shaxsni ishsiz deb eʼtirof etish yoki eʼtirof etishni rad qilish toʻgʻrisidagi buyruqda aniqlangan faktik holatlar, qoʻllanilgan huquqiy normalar, baholangan dalillar, nafaqani hisoblash tartibi hamda yuqori turuvchi organga va sudga shikoyat qilish muddati va usuli koʻrsatiladi. Elektron shaklda qabul qilingan qaror boʻyicha maʼmuriy ishning audit yozuvlari saqlanadi va shaxsga uning soʻroviga koʻra taqdim etiladi”.

Ikkinchi taklif. Qonunning 58-moddasida “sud” tushunchasini funksional jihatdan aniqlashtirib, bandlik organining maʼmuriy hujjati, harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyat maʼmuriy sud ishlarini yuritish tartibida koʻrilishini; mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan talablar esa tegishli fuqarolik protsessual tartibda hal etilishini koʻrsatish lozim. Bu norma sudga murojaat qiluvchi fuqaroning yurisdiksiya xatosi sabab vaqt yoʻqotishining oldini oladi.

Uchinchi taklif. Oliy sud Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi 24-son qarorini bandlik nizolariga tatbiq etiladigan quyidagi tushuntirishlar bilan toʻldirish zarur: a) ishsiz maqomi, nafaqa, subsidiya va bandlik xizmatiga doir maʼmuriy hujjatning qonuniyligini javobgar organ isbotlaydi; b) organ sudga roʻyxatga olish, vakansiya taklifi, idoralararo soʻrovlar, xabarnoma va hisob-kitobni oʻz ichiga olgan toʻliq maʼmuriy ish jildini taqdim etadi; d) qarorda koʻrsatilmagan yangi asoslar sudda dastlabki hujjatning yetishmovchiligini bartaraf etmaydi;


ISSN 2181-8118

e) harakatsizlik qonunga xilof deb topilganda sud bajarilishi lozim boʻlgan aniq harakat va muddatni koʻrsatadi.

Toʻrtinchi taklif. Yagona milliy mehnat tizimida har bir murojaat boʻyicha raqamli maʼmuriy ish jildi shakllantirilishi kerak. Unda ariza, avtomatik tekshiruvlar, vakansiya takliflari, idoralararo javoblar, operator qarori, xabarnoma yetkazilgan vaqt va oʻzgartirishlar tarixi saqlanishi lozim. Algoritmik tavsiya salbiy qarorga sabab boʻlsa, fuqaro inson tomonidan qayta koʻrib chiqishni talab qilish huquqiga ega boʻlishi kerak.

**Xulosa**

Tadqiqot natijasida bandlik sohasidagi ommaviy-huquqiy nizolarning asosiy oʻziga xosligi uch omil bilan belgilanishi aniqlandi: birinchidan, fuqaro va maʼmuriy organ oʻrtasidagi axborot hamda hujjat imkoniyatlari teng emas; ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy himoyasi qatʼiy va qisqa protsessual muddatlarga bogʻliq; uchinchidan, bandlikka oid talablar maʼmuriy, fuqarolik va iqtisodiy yurisdiksiyalar kesishmasida joylashadi.

Sud nazoratining samaradorligi uchun talab predmetini toʻgʻri tasniflash, javobgar organdan toʻliq maʼmuriy ish jildini talab qilish, qarorni faqat qabul qilingan paytda koʻrsatilgan faktik-huquqiy asoslar boʻyicha tekshirish hamda harakatsizlik aniqlanganda aniq ijro majburiyatini belgilash zarur. 2024–2025-yillar statistikasi ommaviy-huquqiy nizolar sonining oshganini va qarorlar hamda harakatsizlikning sezilarli qismi sud tomonidan qonunga xilof deb topilayotganini koʻrsatadi. Biroq bandlik nizolarining alohida statistik toifa sifatida yuritilmasligi sohaviy xulosalar chiqarishni cheklaydi.

Ochiq sud materiallari ishsizlik nafaqasi boʻyicha qaror qabul qilish muddatlari va dalillarni yigʻish, xususiy bandlik agentligi litsenziyasi boʻyicha esa maʼmuriy taʼsir chorasining asoslari va yurisdiksiya masalasi amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Taklif etilgan normativ oʻzgartirishlar, Oliy sud Plenumi tushuntirishlari va raqamli audit mexanizmi bandlik organlarining hisobdorligini oshirish, nizolarni erta bosqichda oldini olish va fuqaroning buzilgan huquqini real tiklashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

Akramova, H. (2022, April 1). Qonunga itoatsizlik litsenziyaning sud tomonidan bekor qilinishiga asos boʻldi [Non-compliance with the law became grounds for judicial cancellation of a license]. *Strength is in Justice*, (15).

Cane, P. (2015). Records, reasons and rationality in judicial control of administrative power: England, the US and Australia. *Israel Law Review, 48*(3), 309–328. https://doi.org/10.1017/S002122371500014X

Craig, P. (2010). Proportionality, rationality and review. *New Zealand Law Review*, (2), 265–301.

Federal Republic of Germany. (1960, January 21). *Code of Administrative Court Procedure (VwGO)*. Laws on the Internet. https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/

Federal Republic of Germany. (1976, May 25). *Administrative Procedure Act (VwVfG)*. Laws on the Internet. https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/

French Republic. (2000). *Code de justice administrative* [Code of Administrative Justice]. Légifrance. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070933/

French Republic. (2015). *Code des relations entre le public et l'administration* [Code of relations between the public and the administration]. Légifrance. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000031366350/

Harlow, C., & Rawlings, R. (2010). National administrative procedures in a European perspective: Pathways to a slow convergence. *Italian Journal of Public Law, 2*(2), 215–258.

Khamedov, I. A., Khvan, L. B., & Tsai, I. M. (2012). *Administrativnoye pravo Respubliki Uzbekistan. Obshchaya chast* [Administrative law of the Republic of Uzbekistan: General part]. Konsauditinform-Nashr.

Khojiyev, E. T., & Shayzakov, Sh. I. (2019). Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning mazmun-mohiyati va oʻziga xos xususiyatlari [The essence and specific features of disputes arising from public-law relations]. *Bulletin of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan*, (4), 31–36.

Mashaw, J. L. (1974). The management side of due process: Some theoretical and litigation notes on the assurance of accuracy, fairness and timeliness in the adjudication of social welfare claims. *Cornell Law Review, 59*(5), 772–824.

Mengliyev, A., & Mamotov, M. (2021, February 12). Ishsizlik nafaqasi har bir xodimning mehnat huquqi kafolatidir [Unemployment benefits are a guarantee of every employee's labor rights]. *Strength is in Justice.*, (6).

Muratayev, S. A., Musayev, B. T., & Artikov, D. R. (2020). *Ma'muriy huquq va protsess* [Administrative law and procedure]. TSUL Publ.

Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2019, December 24). *On judicial practice in considering cases concerning appeals against decisions and actions (inaction) of administrative bodies and their officials (Resolution No. 24).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-4711311

President of the Republic of Uzbekistan. (2025, January 30). *On additional measures to introduce modern mechanisms for the judicial protection of the rights of citizens and business entities (Resolution No. RP-33).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-7350794

Republic of Uzbekistan. (2018a, January 25). *Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative proceedings*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-3527353

Republic of Uzbekistan. (2018b, January 8). *On administrative procedures (Law No. LRU-457).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-3492199

Republic of Uzbekistan. (2020, October 20). *On employment of the population (Law No. LRU-642).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-5055690

Republic of Uzbekistan. (2023, April 30). *Constitution of the Republic of Uzbekistan.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-6445145

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2025, February 4). *Information on cases arising from public-law relations considered by courts in 2024*. https://sud.uz/news-2025-02-03-1/

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2026, January 6). *Information on cases arising from public-law relations considered by courts in 2025*. https://sud.uz/news-2026-01-05-1/


ISSN 2181-8118

# O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.